



Taqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

TOMAS ALVA EDISON  
(1847-1931)

2022  
MART  
№38



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
7-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-7**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-7**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 38-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 23 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>1. T.F.Temirova, I.Ashirmatova</b>	
NOFILOLOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA TIL O'RGANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	7
<b>2. Kudaybergenova Gúlparshin Polatbayevna</b>	
QARAQALPAQ TILINE RUS TILINEN KIRGEN YURIDIKALÍQ TERMINLER .....	9
<b>3. Матякубова Зилола Халилуллаевна</b>	
ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ .....	11
<b>4. Xolmanova Sh. Q., Suvonova N. N.</b>	
BADIY MATNLARDA SALBIY IBORALARNI QO'LLASHGA XOS TAMOYILLAR TAHLILI .....	13
<b>5. Маткаримова Ашурхон Исмоиловна</b>	
ТИЛШУНОСЛИКДА "ХУРМАТ" ШАКЛЛАРИНИНГ ТИЛ ВОСИТАЛАРИ ОРҚАЛИ ВОҚЕЛАНТИРИЛИШИ .....	16
<b>6. Xayitova Yulduzxon Javlonbek qizi</b>	
CHO'LTON SHE'RIYATIDA SHARQ AYOLLARI TIMSOLI .....	18
<b>7. Obidjonov Xojimurod Xudoyberdi o'g'li</b>	
OMONIMLARLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	20
<b>8. Kutimova Amangul Kalbayevna</b>	
MAKTABLARDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH .....	21
<b>9. Носирова Умидахон Икромовна</b>	
ТИЛШУНОСЛИКДА ПОЭТИК СИМПТОМ МАСАЛАСИ .....	23
<b>10. Ochilov Bahodir Ramozon o'g'li, Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li</b>	
MAQSUD SHAYXZODANING QARDOSH XALQLAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI .....	25
<b>11. Sobirova Dilafruz Chorievna</b>	
NEW WAYS TECHING ENGLISH LANGUAGE .....	27
<b>12. Makhbuba Toshpulatova</b>	
IDIOMS FROM THE WORLD OF TECHNOLOGY .....	29
<b>13. Yo'ldoshaliyeva Muyassarxon Yo'ldoshboy qizi</b>	
"BOBURNOMA"DA KELTIRILGAN IJODKORLAR TAVSIFI .....	31



## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДЌИҚОТЛАР

### NOFILOLOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA TIL O'RGANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Ilmiy rahbar: T.F.Temirova**  
TDTU OF “O’zbek tili va adabiyoti  
kafedrasи o’qituvchisi  
**I.Ashirmatova Islom Karimov nomidagi**  
TDTU OF 3D-20 KI guruh talabasi  
Telefon:97.8713070  
Yagona199212@mail.ru

**Annotatsiya:** Davlatimiz tomonidan til o’rganishga qaratilayotgan kata e’tibor natijasida hozirda deyarli har bir ta’lim muassasalarida horijiy tillarni o’rganish va o’rgatish alohida e’tibor berilmoxda. Shu jumladan nofilologik ta’lim muassasalari talabalarining horijiy tillarni o’zlashtirishida duch keladigan muammolarni bartaraf etishda bir qancha metodlardan foydalanilmoqda.

**Kalit so’zlar:** texnologiya, metod, klaster, sinkveyn, amaliy tilshunoslik, terminlar, lug’at,

Respublikamizda ta’lim tizimiga qaratilayotgan alohida e’tibor samarasи o’larоq, hozirda yoshlarimiz bilim cho’qqilarida yuqori marralarni zabt etishmoqda. Bu jarayonda tajribali pedagog kadrlarning xizmatи va mashaqqatlarini alohida ta’kidlab o’tmaslikning iloji yo’q.

Bizga ma’lumki tilshunoslik tillarni o’rganuvchi fan bo’lib, o’z navbatida ikki turga bo’linadi. Nazariy va amaliy lingvistika. Nazariy tilshunoslik, tilning strukturasi (grammatikasi) va uning ma’nosи ni(semantikasini) o’rganadi [1]. Amaliy tilshunoslik, asosan , tilshunoslikda o’rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash bilan shug’ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga horijiy tillarni o’rganish va o’rgatish, tarjima, nutq terapiyasi va patologiyasi, kabi fanlar kiradi.

Til o’rganish jarayonining samaradorligini oshirishda pedagog kadrdan chuqur bilim, malaka va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish talab etiladi.

Aynan nofilologik ta’lim muassasalarida dars jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogning mavjud ped texnologiyalardan unumli foydalanishi muhim hisoblanadi. Hozirda ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan faydalanilmoqda [2]. Jumladan, “klaster” metodi. Bu texnologiya talabalarning aynan bir mavzudagi fikrlarini jamlash uchun muhim hisoblanadi. Aynan chet tili darslarini tashkil qilishda ushbu texnologiyadan muayyan bir mavzuga oid yangi so’z va terminlarni yig’ish, esga olishda foydalanish mumkin. Bunda, talaba bevosita mavzuga oid so’z va iboralar uning lug’at bazasida bor yo’qligini va aynan tanlangan mavzuni nechta so’z bilan ifodalay olish qobiliyatini tekshirish mumkin. Ayni texnologiyani dars jarayonida qo’llash bilan auditoriyani jonlantirish va talabalarni o’z lug’at bazalarini mukammallashtirishga undash mumkin. Masalan, darsning mavzusi “My city” bo’lsa talabalarning mavzuga oid so’z boyliklarini tekshirish uchun klasterdan foydalanamiz. Jumladan,





Klaster tarmoqlarining ko’p bo’lishi yuqorida aytib o’tilganidek talabalarning lug’at boyliklariga bog’liq. Dars jarayonida hosil bo’lgan klaster orqali talabalarga ushbu mavzuda matn yozishni topshirish mumkin. Bunda klaster matnning homaki varianti bo’lib tayyor so’zlardan matn yozish talabalarga qiyinchilik tug’dirmaydi. Shu bilan birga bevosita ulardagi yozish (writing) qobiliyati o’sib borishiga yordam beradi.

Dars samaradorligini oshirishda muhim bo’lgan texnologiyalardan yana biri – BBB texnologiyasıdir. Bu texnologiyaning o’ziga hosligi talabalarning mavzuga va fanga oid bilimlarini aniqlashga va o’qituvchi talabalarga aynan qanday ma’lumot berishi kerakligi va mavzuni murakkab, soda va oddiyroq tarzda ifodalashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonini samarali tashkil qilishda pedagog kadr ahamiyat berishi kerak bo’lgan yana bir muhim omil bu guruhning bilish darajasi (level). Yuqoridagi metod orqali o’qituvchi guruhning bilim darajasini aniqlab shu asosda darsni tashkil qilishi mumkin.

O’tilgan mavzu qay darajada o’zlashtirilganligini sinkveyn texnologiyasi orqali aniqlash mumkin. Ma’lumki sinkveyn fransuzcha “besh” degan ma’noni anglatadi. Bu texnologiya orqali mavzuning o’rganilganlik darajasini va talabalarning lug’at boyliklarini ham aniqlashimiz mumkin bo’ladi.


Ot (1ta so’z)

Sifat (2 ta so’z)

Fe’l (3 ta so’z)

Ibora (gap bilan ta’rif beriladi)

Sinonim (1ta so’z)



Shuningdek dars samaradorligini oshirishda va talabalarning faolligini ta’minlashda guruh bo’lib (group work) va juft bo’lib (pair work) ishlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Aytish mumkinki darsning samaradorligi pedagogning tajribasiga, zamонавиyy pedagogik texnologiyalar hamda innovatsion vositalardan unumli foydalanishiga bog’liq[3].

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rob Batstone, Language Teaching. A scheme for teacher education, Oxford University Press, 1994, p.55

2. Авлиякулов Н.Х. Замонавий ўқитиши технологиялари. Ўқув кўлланма. -Т: 2001. – 68 с.

3. Сайдахмедов Н. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. – Т.: Таълим маркази, 1999. -55 с.

Internet saytlar:

[Uz.infocom.uz/ta'limtexnologiyalari](http://Uz.infocom.uz/ta'limtexnologiyalari)

[www.esljobproject.com/esl\\_info/methods-approaches](http://www.esljobproject.com/esl_info/methods-approaches).



## QARAQALPAQ TILINE RUS TILINEN KIRGEN YURIDIKALIQ TERMINLER

Kudaybergenova Gúlparshin Polatbayevna,  
Berdaq atındağı QMU magistrantı  
+998933680130

**ANNOTACIYA:** Qaraqalpaq tiliniń sózlik quramında basqa türkiy tiller sıyaqlı rus tili hám rus tili arqalı basqa tillerden ózlesken yuridikalıq terminlerdi kóplep ushiratamız. Biz bul maqalamızda rus tilinen ózlesken yuridikalıq terminlerdi tillik tärepten analiz isledik.

**GILT SÓZLER:** blank, otvod, zabastovka, neustoyka, raport, protokol, ilimiý keňes, komissiya.

Hárbir tildiń sózlik quramı ishki mümkinshilikler menen birge sırtqı derekler tiykarında da bayıp, rawajlanıp otıradı. Tillerdiń bir-birine tásiri, bir tilden ekinshi tilge sózlerdiń ótiwi-jámiyettiń rawajlanıwındaǵı zańlı qubılıs. Bul qubılıs, ásirese, jámiyettiń rawajlanıwınıń belgili bir basqışhında sózlik quramǵa basqa tillerden sózlerdiń awısında ayqın seziledi. Qaraqalpaq tiliniń sózlik quramında arab, parı, rus hám rus tili arqalı basqa tillerden kirgen sózlerdiń kóplep ushırasıwı bul tilleriń tásırınıń ayriqsha kúshlı ekenligin kórsetedi.

Basqa türkiy tiller sıyaqlı qaraqalpaq tiliniń sózlik quramında rus tili hám rus tili arqalı inglez, francuz, nemis, italyan, ispan hám grek, latin tilinen yuridikalıq terminler kirip kelgen. Biz yuridikalıq terminlerdi shıǵısına qaray klassifikasiyalawda ózbek tilinde baspadan shıqqan «Yuridikalıq enciklopediya» (2010) «Yuridik atamalar va iboralar lug'ati» (1993) «Ruschao'zbekcha yuridik atamalar lug'oti» hám sonday-aq, qaraqalpaq tilinde baspadan shıqqan «Yuridikalıq terminlerdiń qaraqalpaqsha túśindirme sózligi» (2003) miynetlerinen paydalandıq. Biz bul maqalamızda qaraqalpaq tilindegi yuridikalıq terminlerdiń shıǵısı boyınsha rus tilinen kirgen terminlerdi jynadiq hám olarǵa tillik tärepten analiz isledik:

**Blank**-baspa is qaǵazı. Hújjet blankası quramına kiretuǵın turaqlı zárurlı bólımler hújjette boliwı shárt bolǵan májbúriy bólımler bolıp tabıladı. Bunday bólımler qaǵazdiń standart betine aldin-ala kírgizilip, baspaxana usılı menen yamasa belgili shtamp járdeminde kóbeytiledi. [1.35]

Ózbekstan Respublikasında ámeldegi mámlekетlik standartına muwapiq, shólkemlestiriw-biylik hújjetleri ushın zárurlı bólımler quramınan kelip shıǵıp, xızmet blankalarınıń eki túri engizilgen: *xatlar blankası hám ulıwma blanka*.

**Otvod**- bas tartıw, bólıp shıǵarıw. 1)sud, prokuror, tergewshi, qorǵawshı, sud málisi xatkeriniń qandayda bir tiykarǵı sebeplerge baylanıslı iste qatnasiwdan shetlestiriliwi, (bas tartıwı); 2) mámlekет organı tárepinen qabil etilgen qarar arqalı paydalaniw ushın ajiratiw (misali: jer uchastkasın ajiratiw)

**Zabastovka**- is taslaw. Ózleriniń siyasiy hám ekonomikalıq talapların orınlatiw ushın adamlarıń shólkemleskenlik túrinde bir yamasa bir neshe kárxanalarda jumısın toqtatıwı.

**Neustoyka**- nızam hújjetleri yamasa shártnama menen belgilengen, qarızdar minnetlemenı orınlamaǵan yamasa tiyisli bölegin orınlamaǵan jaǵdayda kriditorǵa tólewi shárt bolǵan pul. Eger shártnamada onı müddetinen aldin biykarlaw ushın járiyma (neustoyka) tólewi haqqındaǵı óz ara minnetlemeleri názerde tutılǵan bolsa, onda jumıs beriwsı xızmetkerden shártlesilgen pul summasın tólewdi talap etiwe haqılı.

**Raport**- bizińshe málimeleme. Házirgi künde bul termin qollanıwdan shıǵıp qaldı hám qaraqalpaq tilindegi ataması málimeleme dep berildi.

Belgili bir mákeme (strukturalıq bólım) baslıǵına xızmet wazıypası menen baylanıslı áhmiyetli máseleler boyınsha yamasa joqarı uyım, lawazımlı shaxsqı qanday da bir waqıya hám hádiyse haqqında xabardar etiw zárurligi tuwlǵanda usınılatuǵın tolıq jazba maǵlıwmat. Onda, ádette, bayanlanıp atırǵan máseleler boyınsha dúziwshiniń (jaziwshı) usınısları sáwlelenedi. [1.166]

**Protokol**- bizińshe bayanlama. Túrli jiynalıs, keňes hám basqa túrli konferenciyalardıń barısın, málilis qatnasiwshılarıń shıǵıp sóylewleri hám olar qabil etken qararlardı anıq, tolıq jaǵdayda dizimge alıwshı rásmiy hújjet. Ol waqıyanıń ornı, waqtı hám jaǵdayı haqqında maǵlıwmat beriw menen birgelikte, qararlardıń durıs qabil etilgenligin tekseriw hám olardıń orınlaniwın qadaǵalawǵa imkaniyat beredi.

Turaqlı jumıs islewshı organlar (ilimiý keňes, hákimlik hám basqalar), sonday-aq, waqıtsha jumıs islewshı organlar (konferenciylar, jiynalıslar, komissiyalar) jumıslarında, álbette, bayanlama jazılıwı kerek. Bayanlaması jaziwdı shólkemlestiriw xatkerdiń tiykarǵı wazıypalarınan biri.



Bayanlama túrli organlardıń turaqlı xatkerleri tárepinen dúziledi hám rásmiyestiriledi. Waqıtsha jumis islewshi organlar májilislerinde bolsa jiynalıs procesinde saylangan xatker usı jumisti orinlaydi. Bayanlamada óz kórinisin tapqan xabarlardıń aniqlığı ushin barlıq juwakershilik májilis başlığı hám xatkerine júklenedi.

Mine, rus tilinen kirgen yuridikalıq terminlerdi úyrengenumizde olardıń kóphshiliginiń qaraqalpaq tilinde ekvivalentligi bar ekenligi sebepli qollaniwdan shıgıp qalǵanın kóremiz.

Juwmaqlap aytatuǵın bolsaq qaraqalpaq tiline rus hám rus tili arqalı kirgen sózlerdiń boliwı unamlı qubılıs hám bul til leksikasınıń bayıwına, jámiyettiń rawajlanıwına óz úlesin qosıp otır.

#### **Paydalanylǵan ádebiyatlar:**

1. Qudaybergenov M, Babajanov F, Xojanov Sh, Seytqasimov D, Jaksimova U. Mámlekетlik tilde is júrgiziw: ámeliy qollanba. T.2021

2. Өтегенов Ж, Тилеўов Е, Есбергенов Р. Юридикалық терминлердин қарақалпақша түснидирме сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан». 2003

3. Raxmatullaev Sh. Ózbek tilinining etimologik lugati. Toshkent, 2000



## ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Матякубова Зилола Халилуллаевна  
Тошкент шахар Юнусобод тумани №302 мактаб  
ўзбек тили фани мутахассис ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада она тили фаниларида дидактик ўйинлардан қандай фойдаланиш хақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** фонетика, орфография, дидактик ўйинлар.

Ҳозирги даврда республикамиз ижтимоий ҳаётидаги туб ижобий ўзгаришлар бошланғич синфлар она тили таълим мининг олдига муҳим талаблар кўймоқда. Машғулотларни педагогик технологиялар асосида олиб бориш давлат таълим стандартлари талабларини бажариш, болаларнинг фикрлаш даражасини мунтазам равшда ўстириб бориш, ўқувчиларнинг нутқий ва имловий саводхонлигини ўстириб бориш, ўқувчиларнинг нутқий ва имловий саводхонлигини тўла таъминлаш ана шу талаблар сирасига киради.

Она тили ўқитиши методикасида ўқувчиларнинг саводини чиқариш, грамматик тушунчаларни шакллантириш, уларнинг нутқий ва имловий саводхонлигини оширишда кўлланадиган усуслар, машқлар вариантлари кўп.

Фонетик, грамматик. Орфографик тушунчаларни мустаҳкамлаш, нутқий малакани мукаммал шакллантиришда методика фанидан белгиланган машқлар қаторида таълимий ўйинлар ҳам муҳим ўрин тутади. Таълимий ўйинларни боўқа машқ турларидан фарқи шуки. Бунда бир томондан, ўқувчиларнинг зерикиши, чарчоғига барҳам берилса, иккинчи томондан болаларнинг фикрлаш жараёни тезлашади, муаян белгиланган малакаларнинг муфассал шаклланиши осонлашади.

Маълумки ўқувчи қанча ёш бўлса, дарсларда кўлланадиган қизиқарли ўйин элементлари шунчалик кўп бўлиши лозим. Чунки дарсда кўлланадиган дидактик ўйин, бир томондан айрим болалар табиатига хос бўлган қизиқувчанлик, шўхлик каби хусусиятларига мувофиқ келса, иккинчи томондан, баъзи болалардаги одамовилик, индамаслик, уятчанлик каби жихатларини бартараф этиб боради. Демак, ўйин жараёни ўқувчи психологисида кескин ўзгаришлар ясади. Ўйин давомида ўқувчи мавхум грамматик орфографик тушунчалар моҳиятини англай бошлайди, унинг хотирасида кўпгина сўзлар учун умумий бўлган белгилар ўрин ола бошлайди, ёзма нутқидаги орфоэпик орфографик нуқсонлар камаяди.

Таълимий ўйинлар синф жамоасининг эркин тутишларини таъминлайди, дарснинг самарадорлиги ортади. Ўйинда кўпчилик ўқувчиларнинг фаол иштироки таъминланиб, рейтинг баллари кўйиб бориш имконияти туғилади. Ўйиннинг яна бир диққатга сазовор жойи шундаки, синфда иноқлик шиддат суради. Ўқувчилар бир бирларига ёрдам беришадисинф жамоаси жисслиги янада ортади.

Она тили дарларида мазмунига кўра таълимий ўйинлар қуидаги тасниф қилинади:

1. Фонетик график ўйинлар
2. Сўзясаш ўйинлари
3. Грамматик ўйинлар
4. Орфографик ўйинлар
5. Нутқ ўстириш ўйинлари

Таълимий ўйинлар ўтказилиши характерига кўра қуидаги турларга ажратилади:

1. Оғзаки ўйинлар
2. Индамас ўйинлар
3. Ёзма ўйинлар.

Ўйинларни ташкил қилишда ўқитувчи қуидаги тамойилларга амал қилиши лозим:

Ўйинлар қизиқарли, содда, тушунарли, аниқбўлиши керак. Ўйин мавзуга мос, чуқур мазмунли булишлиги. Ўйинда иложи борича кўпроқ ўқувчи иштирок этилиши; Ўйин ўқувчиларни муаян кўникмалари ва малакаларини шакллантириш; Ўйин ғолибларини рағбатлантириб борилиши зарурлиги.

Дидактик ўйинлар ўқувчиларнинг ўзаро ва ўқитувчилар билан ҳамкорлигини мухтахкамлашда бекиёс аҳамият касб этади.



“Ким кўп сўз билади” ўйинида ўқувчиларнинг луғат бойлигини ўстиришга ёрдам беради. Бунинг учун гурух иккига бўлинади. Биринчи гурух ўқувчилари тезлик билан доскага унли билан бошланадиган сўзларни ёзиш берилса, иккинчи гурухга эса ундош билан тугаган сўзлар берилади. Сўз ёзишдан тўхтаган ютқазган хисобланади.

“Сўз топ” Мазкур ўйинда ўқувчилар луғат устида ишлайдилар. Ўйин қоидасига кўра хар бир ўқувчи сўз айтади кейинги ўқувчи давом эттиради. Масалан: *мактаб бола, анзор расм ва хакозо.*

Шунингдек бу ўйинда мавзуга оид сўзлардан хам фойдаланиш мумкин. Масалан, уй жиҳозларига оид сўзларни айтиш топшириғи берилганда, 1 ўқувчи: хонтахта; 2 ўқувчи: кўрпача; 3 ўқувчи: гилам; ва хакозо тарзда давом эттиради.

Хар бир дарсда қизиқарли ўйинлар билан ўтказилса дарс янада қизиқарли ва мазмунли ўтилади. Она тили фанига меҳри ва қизиқиши орта боради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Косимова К. 4 синфда она тили дарслари. Т. “Ўқитувчи”, 1965й
2. Узлуксиз таълим. 2009й. №5
3. “Бошланғич таълим” журнали 2012№6сон Тошкент
4. А.Ғаниев Садриддин Айнийнинг педагогик фаолияти. “Ўқитувчи”, 1965



## BADIY MATNLARDA SALBIY IBORALARNI QO'LLASHGA XOS TAMOYILLAR TAHLILI.

Xolmanova Sh. Q.  
SamDCHTI magistranti  
Ilmiy rahbar: Suvonova N. N.

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy matnlarda iboralarni qay tarzda qo'llanilishiga xos tahlillar haqida fikr yuritiladi.

**Annotation :** This article is about discusses specific analyzes of how expressions are used in literary texts.

**Kalit so'zlar.** Til, tilshunoslik, badiiy matn, ibora, frazema, frazeologik birlik, frazeologiya, tahlil.

**Keywords.** Language, linguistics, literary text, phrase, phrasema, phraseological unit, phraseology, analysis.

Hozirgi kunda yurtimizda chet tillarini o'rganish va o'rgatishga katta e'tibor berilmoqda. Bunday katta imkoniyatlar fransuz tili sohasida yangi tadqiqotlarni ochilishiga sabab bo'lmoqda. Insonlar o'rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi bu tildir. Shu bilan birga tilda milliy madaniyatning o'ziga xos oynasi bo'lgan, uni saqlovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatidagi frazeologik iboralarni o'rganish katta ahamiyatga egadir. U yoki bu xalq yashayotgan joyining tabiatni, iqtisodiy tizimi, og'zaki adabiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati aynan iboralar orqali avloddan-avlodga yetkazib beriladi.

Frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumjahon tilshunoslida frazeologiyaning umumiyligi masalalari dastlab Sh.Balli tomonidan o'rganib chiqildi. U o'z asarlaridan birida shunday degan edi: "Phraseology is an intermediary field of linguistics, it can be considered as being close both to vocabulary studies, (because it studies fixed word combinations characterized by a unitary meaning), and to syntax. Moreover, given the expressive nature of phraseological phenomena, these have also been associated to stylistic" <sup>1</sup> – ("Frazeologiya tilshunoslilikning oraliq sohasi bo'lib, uni lug'atshunoslikkha ham (chunki u birlik ma'nosi bilan tavsiflangan turg'un so'z birikmalarini o'rganadi), sintaksisiga ham yaqin, deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, frazeologik hodisalarning ekspressiv xususiyatini hisobga olgan holda, ular stilistika bilan ham bog'langan.

Yozuvchilar odatda, asar qahramonlari, undagi obrazlarni, ularni kechinmalarini tasvirlashda oddiy so'zlar bilangina kifoyalanibgina qolmaydilar. Balki ularning ustida qayta – qayta ishlaydi. Badiiy matnlarda ba'zan iboralarni qo'llashga to'g'ri keladi. Chunki iboralar matnlarni ta'sirchanligini oshiradi. Fransuz yozuvchisi *Gi de Mupassan* ham o'zining "Bel – Ami" ("Azizim") romanini bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu roman o'z davrining shox asari balki bugungi kunda ham eng ko'p nuxsada chiqqan betakror roman hisoblanadi.

*Gi de Mupassan* "Bel – Ami" ("Azizim") romanida qahramonlar ruhiyatini tasviriy vositalar orqali, ularning g'azabi, nafratini moxirlik bilan ifodalagan. Yozuvchi inson psixologiyasini, inson ruhiyatini, ichki kechinmalarini tasvirlashda iboralardan ham keng foydalangan. Xo'sh **ibora** o'zi nima? Ibora tilimizning lug'at tarkibini tashkil etuvchi frazeologik birlik hisoblanadi. Ular ikki va undan ortiq so'zlarning ko'chma ma'nolari asosida tarkib topgan lug'aviy birlik hisoblanadi va xuddi so'z kabi lug'aviy ma'noni anglatadi.

Masalan :

*Gai comme un de profundis – O'lganini kunidan xursand;*

*Langue dorée – so'zamol, gapga chechan;*

Ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil turkum leksemasidan (so'zlardan) tarkib topadi.<sup>2</sup> Frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat

1 Bally Ch. A History of the English Language. –London: Routledge, 1993. – 250 p.

2 Fransuzcha\_frazeologik\_birliklarning\_etimologik\_talgini pdf 17b.



qiladi. Badiiy uslubda ham iboralarning qo'llanishi o'ziga xos bo'lib, ular badiiy asar tili ta'sirchanligini, shuningdek, badiiy asar qahramonining nutqi ifodaliligin oshirishga yordam beradi.<sup>1</sup> So'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan bunday til birligi *frazeologik birlik* yoki *frazeologizm* ham deb yuritiladi. Iboralar frazeologik birlik sifatida tilshunoslikning yirik qismi – frazeologiya bo'limida o'rghaniladi.

Iboralar 2 xil shaklda bo'ladi.

1. So'z birikmasi shaklida : oq ko'ngil kabi.

2. Gap shaklida: ilonning yog'ini yalagan.

Badiiy uslubda ham iboralarning qo'llanishi o'ziga xos bo'lib, ular badiiy asar tili ta'sirchanligini, shuningdek, badiiy asar qahramonining nutqi ifodaliligin oshirishga yordam beradi.<sup>2</sup> Iboralar nutqning emotsiyal – expressivligini kuchaytirish, qahramonlarning qiyofasini va ruhiy holatlarini yoritishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, endi iboralarni badiiy matnlarda qay tarzda qo'llanilishini ya'ni fransuz yozuvchisi *Gi de Mupassanning “Bel – Ami”*

(“Azizim”) romanida ishlatilgan iboralarni tahlil qilamiz.

1. *Et une colère l’envahissait contre ces gens assis et tranquilles(MBA14b.) (Shunda uning ko’kragida maza qilib o’tirgan ushbu janoblarga nisbatan g’azab jo’sh urib ketardi).*

Muallif bu gapda salbiy emotsiyani ifodalashda iboradan foydalangan. Ya'ni **g’azab jo’sh urib ketmoq**. Yozuvchi bu gapda “*g’azabi jo’sh urib ketmoq*” - “*et une colère l’envahissait*” iborasidan foydalangan. Bu ibora gap shaklidagi ibora hisoblanadi. Muallif bu gapda asardagi obrazning insonlarga nisbatan bo’lgan nafratini, g’azabini ibora bilan ifodalagan. Bu gapda ibora kesim o’rnida qo’llanib kelyabdi. Bu gapdagagi “*g’azabi jo’sh urib ketardi*”-*et une colère l’envahissait* so’zları anglatadigan ma’nolarning oddiy yig’indisi bo’lmay, balki biron narsadan qattiq g’azablanishni ifodalashga asoslangan obrazli ma’nodir. Hamda tuzilishiga ko’ra gapga teng bo’lgan frazeologizm hisoblanadi. G’azabi jo’sh urib ketmoq iborasiga sinonim siifatida **“achchig’i chiqmoq”** iborasini ham aytishimiz mumkun. Bu ibora salbiy hissiyotlarni ifodalashda qo’llaniladi. Muallif bu jumlada qahramonning “o’tirgan janoblar” ga bo’lgan nafrati va g’azabini ibora orqali ifodalagan.

2. Il **frappa du pied, et violement** (MBA.353b.) (Jorj g’azab bilan yer tepindi). Muallif bu jumlada « g’azab bilan yer tepinmoq » – “**frappa du pied, et violement**” iborasini qo’llagan. Inson xulq-atvorining salbiy jihatlarini ifodalovchi frazeologik birlik hisoblanadi. Bu gapda ibora kesim o’rnida qo’llanilib kelyabdi va jumlaning ta’sirchanligini oshiryabdi. Bu gapda ibora faqatgina ma’noni kuchli ifodalabgina qolmasdan, shu bilan birga shu ma’noni obrazli ham ifodalagan. Ya’ni obrazning g’azabi bilan yer tepinishini emas, balki kuchli jahli chiqqanidan yer tepeinganini ifodalayabdi. To’g’ri, yozuvchi asarda bunday vaziyatda qahramonning g’azabini oddiyina qilib ko’rsatishi ham mumkin edi ammo, gapning yanada ta’sirliroq chiqishi uchun “g’azab bilan yer tepinmoq” iborasini qo’llagan. Bu ibora esa gapni yanada boyitgan. O’z o’rnida **g’azab** psixologik holat hisoblanadi.

G’azab turli sabablarga ko’ra paydo bo’lishi mumkin. Birinchi sabab bu ko’plab to’siqlar tufayli asabiylashish (asabiy charchash) va atrofdagi vaziyatlar. G’azabga sinonim sifatida **jahl** so’zini ham ishlatishimiz mumkin.

“G’azab bilan yer tepinmoq” ibora tuzilishiga ko’ra gapga teng bo’lgan frazeologizm hisoblanadi. Il **frappa du pied, et violement** ushbu frazeologizmning komponentlari quyidagi so’z turkumlariga tegishlidir ;

- **frappa** frapper fe’lining passé simple zamonidagi III shaxs birlik shakli.

- **du** (article partitif) - qism bildiruvchi artikl. **A r t i k l** (Article) haqida

- qisqacha shuni aytish mumkinki, u doimo otlar oldidan qo’llanilib, otning rodini, sonini aniqlab keladi. Ular aniq (définis), noaniq (indéfinis), tutash (contractés) va qisman (partitifs) artikllarga bo’linadi. Bundan tashqari, qisqartma artikl (l’article élidé) ham mavjuddir ;

- **pied (nm)**, (le nom) – oyoq (ot so’z turkumi) ;

- **et** (conjonction) – va (bog’lovchi) ;

- **violement** (adverbe) – (ravish) ;

1 Iboralar o’tish orqali o’quvchilarning nutqini o’stirish Metodikasi - Jizzax-2012, 10 – b. <http://library.ziyyonet.uz> › book › download

2 Iboralar o’tish orqali o’quvchilarning nutqini o’stirish Metodikasi - Jizzax-2012, 10 – b. <http://library.ziyyonet.uz> › book › download



**3.Il lui coupa la parole dans un mouvement d'impatience dont il ne fut pas maître** (*MBA.281b.*) - Juda jonimga tegib ketti-ku, - jahlini yashirolmay dedi. Muallif bu jumlada «*couper la parole*» «(gapini bo'lmoq) iborasini qo'llagan. couper la parole à qn – gapini bo'lmoq, gapishtga bermaslik kabi ma'nolarni anglatadi. Ma'nosidan ko'rinish turibdiki, bu ibora salbiy ma'no kasb etuvchi frazeologik birlik hisoblanadi.

Bu iboraga sinonim sifatida *arrêter, incruster, intervenir, placer un mot ramenir sa fraise, interrompre*<sup>1</sup> so'zlarini ishlatsak bo'ladi. Muallif bu ibora orqali qahramonning qay darajada sabrsizligi va betoqat ekanligini ifodalab ko'rsatgan. O'z navbatida «gapini bo'lmoq «ham salbiy illatlatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham muallif jumlada obrazning salbiy hissiyotini to'laligicha chiqarib bergen. «Gapini bo'lmoq « iborasiga sinonim sifatida «sabrsizlik» va «betoqatlik» so'zlarini ishlatishimiz mumkin. Sabrsizlik biz uchun eng salbiy illatlaridan biri hisoblanadi. Sabrsizlik bizni maqsadlarimizdan uzoqlashtiradigan asosiy to'siqlardan biridir.

- **il (pronom personnel)** - kishilik olmoshi III shaxs birlik forma mujskoy rod ;
- **lui (pronom personnel)** – u, unga (kishilik olmoshi)
- **la, nf (article définitis)** – aniq artikl jenskoy rod
- **un(article indéfinis)** – noaniq artikl ;
- **d' ( forme fléchie )** ;
- **ne pas** (forme negative) – (bo'lishsiz forma) ;
- **dans** (préposition) – predlog (-da, ichida, -ga) ;
- **dont (pronom relatives)** - «dont» nisbiy olm oshi shaxsning va predm etlam ing nomlarini ifodalab, d e q u i, d e quoi, d u q u el o 'm iga ishlatalidi. U otning, fe'lning, sifatning, miqdor ravishing, sonning to'ldiruvchisi bo'lib kelishi mumkin;
- **movement, nm (le nom)** – harakat (ot so'z turkumi);
- **parole, nf (le nom)** – nutq, gap (ot so'z turkumi);
- **maître, nm (le nom)** – xo'jayin (ot so'z turkumi);
- **impatience nf (le nom)** – besabrilik (ot so'z turkumi);
- **coupa (le verbe)** – kesmoq, qirqmoq (fe'l so'z turkumi, Passé simple zamonida, III shaxs birlikda qo'llanilgan) ;

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi tahlillarimiz davomida, biz amin bo'ldikki, frazeologizmlarning badiiy asar tilidagi tasviriy faoliyati juda ham rang – barang va turlicha hisoblanadi. Badiiy asardagi emotSIONALLIK, expressivlik va bo'yoq dorlikni yuzaga keltirish uchun mualliflar frazeologizmlardan foydalanadilar. Fransuz iboralari xalq og'zaki ijodida, kundalik muloqotda keng qo'llanilib, umuman uy-rozg'or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq – ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek insонning emotSIONAL-ruhiy holatlarini ifodalab keladi. Ushbu iboralar esa obrazlarning ruhiy emotSIONAL holatini ko'rsatib bergen. Ya'ni iboralarda obrazlar tomonidan salbiy emotSIONAL iboralar ishlataligan. Biz tahlilimiz davomida bunga amin bo'ldik.

Frazeologizmlarning tilshunoslikda, adabiyotda, jurnalistikada va ko'plab sohalarda o'rni juda ham katta. Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, frazeologizmlar va shu jumladan emotSIONAL – ekspressiv bo'yoq dor frazeologizmlar fikrni ta'sirchan, obrazli, emotSIONAL – expressiv ifodalash uchun yaratilgan til hodisisi desak mubolag'a qilmagan bo'lamic.

## FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR

1. Bally Ch. A History of the English Language. –London: Routledge, 1993. – 250 p.
2. Fransuzcha\_frazeologik\_birliklarning\_etimologik\_talgini pdf 17b.
3. Ibolarlar o'tish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish Metodikasi - Jizzax-2012, 10 – b.  
<http://library.ziyonet.uz> > book > download
4. Ibolarlar o'tish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish Metodikasi - Jizzax-2012, 10 – b.
- 5 .<http://library.ziyonet.uz> > book > download <http://dictionnaire.sensagent.leparisien.fr/couper%20la%20parole/fr-fr/>

<sup>1</sup> <http://dictionnaire.sensagent.leparisien.fr/couper%20la%20parole/fr-fr/>



ТИЛШУНОСЛИКДА “ҲУРМАТ” ШАКЛЛАРИНИНГ ТИЛ ВОСИТАЛАРИ  
ОРҚАЛИ ВОҚЕЛАНТИРИЛИШИ

Маткаримова Ашурхон Исмоиловна,  
Андижон давлат университети  
чет тиллар факультети ф.ф.ф.д. (PhD)  
Телефон: +998914788372  
sanam\_2004@mail.ru

**АННОТАЦИЯ:** Ҳурмат ифодаловчи бирликларнинг майдонга жамланишида уларнинг этимологик жиҳатлари ҳам эътиборга молик. Ушбу мақола бир қарашда бу майдонга кирмайдигандек туюувчи бирликларнинг этимологияси тилда ҳурмат шаклларининг диахрониясини очиб беришини исботлайди.

**КАЛИТ СҮЗЛАР:** майдон, тил бирликлари, тилшунослик, концепт, фрейм, гешталт, элемент, семантик майдон, лингвистик майдон, тушунча.

Тил ва тил ташувчиси муносабати тилшуноснинг дикқат эътиборини жалб этиши шубҳасиз. Инсон учун тил нафақат мулоқот, балки билим олиш, билимни сақлаш, умуман дунёни англаб етиш воситасидир ҳам. Инсон яшаш тарзи ва тафаккур тарзидан келиб чиқиб оламнинг ўзи тушуниб етган манзарасини яратади. “Жамиятдаги ўзгаришлар, мавжуд вокелик ҳар бир замонда тилда ўз ифодасини топиб келган. Тилда акс этган олам манзараси табиат тасвиirlари, жамият ифодаси, ижтимоий муносабатлар, шахс рухияти, қизиқишлиари, дунёқарашини ўз ичига олади. Кейинги йилларда яратилган ижтимоий соҳаларга, жумладан, тилшуносликка доир тадқиқотлар инсон манфаати, қизиқиши, рухияти, яшаш тарзи, урфодати, маданияти, тафаккур маҳсули билан боғлиқ масалалар тадқиқига бағишиланмоқда. Тилнинг ижтимоий функцияларига кишилик жамияти тараққиётининг бир қисми сифатида қараш дастлабки эътиборда бўла бошлади” [3, 11].

Ички лингвистика тилнинг қурилиши, структураси, тил механизмини ўрганса, тилнинг ижтимоёт билан боғлиқ жиҳатлари ташқи лингвистика предметидир. Ички лингвистикада “ҳурмат” обьект бўлса, ташқи социал лингвистика “ҳурмат” қамровини кенгайтиради: у бошқа яна қатор “ҳурмат” имкониятларини ҳам обьект қилиб олади.

“Ҳурмат” давр ва муҳит таъсирини ҳам акс эттиради. Масалан, биргина улуғлаш мазмунини ифодалаш учун жсаноб (*gentleman, sir, mister, excellency – президент, элчи* ва жуда муҳим шахсларга мурожаат шаклида қўлланилади), *тақсир* (*respected/honored person*), *афандим* (*gentleman, mister*), *мирзо* (*clerk – ўзбек тилида бу сўз кўпроқ зиёли, ёзув-чизув қилувчи шахсга нисбатан қўлланади*) каби сўзлар ишлатилади.

Ҳозирги ўзбек адабий тилида сўзловчи шахснинг жамиятда тутган ижтимоий ўрнига мос холда жсаноб, *тақсир* сўзларини мурожаат шакли сифатида қўллаш мумкин. Бу сўзлардан жсаноб давлат ва ҳукумат бошлиқларига мурожаатда қўлланилиши барқарор ҳолга келиб қатъйлашган, *тақсир* сўзи эса кўпроқ диний илмлилк даражасида юқори турувчиларга нисбатан қўлланилади. *Мирзо* ва *афандим* сўзлари ҳозирги норма бўйича, деярли истеъмолдан чиқкан [1, 31].

Бу ҳақда “Адабий тил норма назарияси”да имкониятлардан бирининг танланиши обьектив зарурият сифатида баҳоланади.

Ўзбек тилшунослигига “ҳурмат” категориясининг мазмуний хусусияти сўзловчининг сұхбатлашиш ва ўзга шахсга бўлган ижобий муносабатини ифодалашdir. Бундай қараш F.N.Зикриллаев ишларида илгари сурилади [2, 20]. Бу олим томонидан “ҳурмат” дастлаб феълга хос категория сифатида қаралиб, унинг семантик-функционал хусусияти, яъни мазмуни, қўлланиш ҳамда ясалиши таҳлил қилинади.

Мазкур категориянинг морфологик хусусияти муносабати билан шундай дейилади: “... биринчи ва иккинчи шахсда субъектнинг коммуникатив роли ҳамда миқдорини кўрсатувчи қўшимча айни пайтда “ҳурмат” маъносини ифодалаш учун ҳам хизмат қилади. Шу пайтгача “ҳурмат” категорияси ажратилмаганидан улар шахс-сон қўшимчаси деб келинار эди” [2, 21].

Категория ҳосил бўлиши учун эса оппозиция юзага келиши шарт. “Маълум бир сўз умумий лексик маъносига қўшимча маъно ифодаловчи формада бўлиши мумкин. Лекин бу



маъно ва форма бошқа бирор маъно ва форма билан муносабатда бўлмаса (у билан бирлик ҳосил қилмаса), у ҳолда грамматик категория ҳақида гапириб бўлмайди. Демак, бир-бирига қарама-қарши қўйилиши, бир-бирига нисбатан олиниши, оппозиция ҳосил қилиши мумкин бўлган икки ва ундан ортиқ грамматик маъно ва шу маъноларга хос формаларгина грамматик категорияни ҳосил қиласди” [4, 211].

Биз ҳам тадқиқотчиларнинг фикр-мулоҳазаларига қўшиламиз, албатта. Шунингдек, ҳурматнинг ифода планига қаралса, нафақат унинг фонетик, лексик, грамматик ҳодисалар тизимидан иборат эканини, балки паралингвистик воситалар билан ҳам ифодаланишини кўришимиз мумкин. Масалан, ўзбек миллатига хос бўлган саломлашиш одобини олсақ, кекса кишилар билан саломлашишда икки қўл билан сўрашиш, ёки ҳурматли шахслар билан ўтирган давралардан чиқиб кетаётганда орқага юриб чиқиб кетиш, бош эгиб таъзим қилиш, тиз чўкиб таъзим қилиш (ушбу ҳолат инглиз тилида *obeicance* дейилади) ва бошқалар кузатилади. Олимлар ҳурматни категория сифатида, тушунча, концепт деб баҳолаганлар. Кўринадики, тадқиқотчи категория атамасини қўлласа-да, ҳурмат ифодаловчи воситаларни гетероген табиатлилигидан келиб чиқиб майдонга кўпроқ яқин келувчи фикрлар баён қиласди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари. –Тошкент: “Академнашр”, 2015. – Б.31
2. Зикриллаев F.N. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. –Тошкент, Фан, 1990. – Б. 20-21.
3. Имамова Х.К. Турк тилида ҳурмат категорияси. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 11.
4. Шоабдураҳмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 211.



## CHO’LPON SHE’RIYATIDA SHARQ AYOLLARI TIMSOLI

Xayitova Yulduzzon Javlonbek qizi

Andijon davlat universiteti filologiya

fakulteti 3-bosqich talabasi

Tel: +998-94-337-7917

email pochta: yulduzzon2001@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezis orqali Cho’lpon ijodida sharq ayollariga xos timsollar va shoir she’rlarining badiiyati yoritib berildi. Cho’lpon davrida sharq ayolining kechinmalari ham tasvirlangan.

**Kalit so’zlar:** Zarif Bashariy, Naim Karimov, o’zbek qizi, sharq qizi. xx asrning 20- yillari, paranji.

xx asrning dastlabki choragida, ayniqsa, oktabr to’ntarishi arafasida adabiy-madaniy merosimiz osmoni uzra Hamza, Abdulla Qodiriy, Fitrat kabi yangi ulug’ vor siymolar yorqin yulduz bo’lib charaqladilar. Xususan, Cho’lpon Navoiydan keyingi betakror iste’dod sohibi sifatida tez tanildi va ko’p o’tmay o’quvchilar qalbini abadiy zabit etdi. Uning ilk she’rlar to’plami “Buloqlar”ga yozilgan birinchi taqrizlarda ham Cho’lponning she’riyat dunyosidagi yangi ohanglari, o’ziga xos ohangi, izlanishlari haqida faxrlanib yozildi: “ Cho’lpon o’zbekning yangi shoiridir. Uning uchun o’zbekning bu kungi holi, ruhi, sezgisi “Buloqlar”da qaynaydir. O’zbek tili, o’zbek ohangi “Buloqlarida sayraydir, o’qiydir. O’zbekning ruhi to’lqinlari bunda ko’piradir, ko’klar sari uchadir, ko’tariladi. “Buloqlar” da o’zbekning sezgisi ingraydir, sizlaydir, titraydir. ... ”. [ 1, 22];

Tatar adabiyotshunosni Zarif Bashariy 1929 yil Qozonda nashr etilgan “O’zbek adabiyoti” Cho’lpon mahoratlari shoir ekanligi va bu sohada uning ayrim tatatar yoshlariga ijobiy ta’siri haqida shunday yozgan edi: “ U ma’no boyligi, shirali tili, uslubi, ifodasi bilan san, atning eng yuqori bosqichiga ko’tarilib chiqdi. U san’at yog’idan, bizning To’qay bilan Dardmang’ a ortig’i bilan barobar kelarlik darajaga yetdi”.

Adabiyotshunos olim Naim Karimov Cho’lpon hayoti va ijodiga oid kuzatishlarni bayon qilar ekan, nafaqat real voqealik bilan xotiralarni bir-biriga bo’glaydi, ayni paytda o’zining tasavvur olamiga, fantaziyasiga tayanib muhim gipotetik manzaralar chizadi. U shoirning “Qizlar daftariga”, “Kleopatra”, “Qizorish”, “Shu kunda” kabi she’rlarining tahlilida keltirib o’tadi. Chunonchi, Cho’lponning “Kleopatra” asaridagi Amu malikasi timsolida shoir suyuklisi Obida aks ettirilgani, shoir uning siyemosini Nil malikasi - Kleopatruga nisbat berib yaratgani haqida ta’kidlaydi.

Cho’lpon she’rlarida sharq ayollariga xos bo’lgan ibo, hayo, nazokat, donolik va kamtarlik andozasi aks etadi. Masalan, shoirning “Sharq qizi” she’ridan parchaga e’tibor qarataylik.

Menim uchun yorug’ dunyo rohati-  
To’rt devor ichida ko’zlar o’ynatmoq,  
Menim uchun ulug’ shodlik soati-  
Telba ko’kragimda o’ylar uyg’otmoq...  
Men bir Sharq qizimen, Sharqning o’zidek,  
Butun tanim, jonim “xayol” uyasi,  
Mening qora ko’zim kiyik ko’zidek,  
Belgisiz ovchining o’qin qo’rasi... [ 2,13]

Yuqorida Sharq qizi tilidan aytilgan ushbu she’rda xx asrning 20-yillarida Turkistonda kechayotgan ijtimoiy tuzum, erksizlik va o’sha paytdagi butun sharq ayolining qiyofasi to’laqonli aks ettirilgan. Bahor kelsa ham erk va ozodlik hissini tuymagan, to’rt devor ichida o’tirib dimiqqan, ezilgan yuraklar xonishi, faqatgina ‘oylar surish orqali shirin orzular qila olgan sharq ayolining iztirobli kechinmalari zo’r mahorat bilan tasvirlanadi. Shoir sharq qizining ma’yus va horg’in ko’zini xuddi kiyikning ko’zlariga o’xshatishi ham she’rga o’zgacha bir ohangdorlikni baxsh etadi. Bilamizki, o’sha davr muhiti ayollar huquqini cheklagan va ularga jamiyatda savodsiz, uy ishlarinigina uddasidan chiqsa yetarli degan mafkurani ilgari surgan. Ayollar jamiyatdan uzilib qolgan, o’zlarining erkalariga ega bo’lmagan. Bularning barchasi omilik, savodsizlikdan edi.

Yoki Cho’lponning “O’zbek qizi” nomli she’rini olaylik.

Mening baxtim qullar baxti yanglig’-

Yo’rug’ o’lkalarda yashaydilar:



Baxti yirog' ko'ngli to'la qonlig'-

Erkin Sharqning tutqin qizlari. [ 3, 15]

She'rda lirik qahramon qiz erta tongdanoq bo'g'ga chiqsa, u yerda bir-biridan go'zal va xushbo'y gullar chaman bo'lib ochilganini ko'ribdi. Gullar orasida sayr qilishni xohlab yugursa, oldidan eri chiqib yo'lini to'sadi. She'rda quldek erksiz qizning inon-ixtiyori o'zida emasligi, baxtsiz va ko'gil uyi qonga to'lgani tasvirlanadi. **Erkin Sharq va tutqin qiz** jumlalari bir-biriga zid tarzda qo'llash ham ijodkor ayollar ruhiyatidagi erk va erksizlikni, nozik qalblarga xos tuyg'ularni betakror misralarga joylay olgan. Shuningdek, shoirning "Paranji" she'rida ham o'zbek ayolining ahvoli, ruhiyati aks ettiriladi.

Yo'q bo'lsin,

Yo'q bo'lsin,

Yirtingiz!

Go'rlarga eltingiz!

Yondiring chimmatni;

Bo'g'masin,

To'smasin

Tabiiy ziynatni! [ 4, 86]

"Qiz qo'shig'i" she'rida esa shunday deyiladi.

Siqiq qafaslarda yayray olmayman.

Jannat bog'lar bor-ku,

Sayray olmayman

Yomon kunlar tushdi mening boshimga.

\* \* \* \*

Ko'z yoshimda yuvsam

Yurtning bag'rini.

Tilim bilan so'rsam

Oqqan qonini...

Qonli kunlar tushdi mening boshimga. [ 4, 66]

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon mahoratlari shoir sifatida o'z she'rlarida sharq ayollari timsoliga alohida e'tibor qaratgan va ularning ruhiy olamini original misralarga muhrlab ketgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- 1."O'zbekiston adabiyoti va san'atti" gazetası, 2014 yil 9-soni.
2. Cho'lpon. Uyg'onish- T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1992.
3. Cho'lpon. O'zbek yosh shoirlari- T. 1992.
4. Cho'lpon. Tong sirlari- T.1992.
5. Cho'lpon. Asarlar. 1-jild- T. 1992.



## OMONIMLARLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Obidjonov Xojimurod Xudoyberdi o‘g‘li**

O‘zga tilli guruhlarda rus tili yo‘nalishi  
2-kurs talabasi, Andijon davlat universiteti

**Anotatsiya:** maqola o‘quvchilarda omonimlar ( shakldosh so‘zlar va qo‘sishimchalar ) va ularning ishlatalishi haqida ma’lumot berilgan bo‘lib uning ahamiyati yuzasidan fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** omonimlar, lug‘aviy (leksik omonimlar, shakldosh so‘zlar) omonimlar, grammatik omonimlar.

Tilimizda tovush tomoni bir xil bo‘lib, turlicha ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar va qo‘sishimchalar mavjud. Bunday so‘z va qo‘sishimchalar omonimlar, ya’ni shakldosh so‘zlar (*lot. homos-bir; onuma-nom*) deyiladi. Masalan, “*ot*” 1)hayvon; 2)ism; 3)irg‘it kabi so‘zlar o‘rtasidagi shakldoshlikni olamiz.

Shakldoshlik faqatgina so‘zlar o‘rtasidagina bo‘lmay , qo‘sishimchalar o‘rtasida ham hosil bo‘ladi. Bu hodisani –*chi* qo‘sishchasi misolida ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, -*chi* qo‘sishchasi so‘z yasovchi qo‘sishma, ya’niki *ishchi*, *suvchi* kabi. Endi esa -*chi* qo‘sishchasing yuklama vazifasini bajarishini ham ko‘rshimiz mumkin. Masalan: sen-chi, ayt-chi kabi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rshimiz mumkinki, omonimlar leksik (lug‘aviy) hamda affiks (qo‘sishma) omonimlarga bo‘linadi.

Lug‘aviy omonimlar, shuningdek, nutq jarayonida so‘z o‘yini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Masalan: *Sizlarga yakshanba kuni olma bog‘ga kirib daraxtlarni oqlaymiz desam*, “*Bizni ish kam joyga yetaklang*”, *deysizlar*. Bu o‘rinda “*ish kam*” so‘ziga izoh berib o‘tadigan bo‘lsak, “*ishkom*” ko‘tarib turadigan moslama hamda “*ish kam*” ma’nolarini bildirish uchun qo‘llanganini ko‘rshimiz mumkin.

O‘zbek tilida leksik omonimlar ko‘p ishlatalganligi sababli u maxsus she’riy janr “*tuyuq*”qa asos bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, shakldosh so‘zlardan foydalanganda ham shakliy, ham mazmuniy go‘zallik aks etadi.

Shakldoshlik so‘zning ma’no jilolarini namoyish qiluvchi lisoniy hodisalardan biri hisoblanadi. U nutqda ohangdorlikni yuzaga keltiradi. E’tibor bering:

*Bunim yo‘q, unim yo‘q,*

*Uyimda unim yo‘q,*

*Ishimda unum yo‘q,*

*Aytishga unim yo‘q.*

Yuqoridagi tuyuqnini tahlil qilib, shakldosh so‘zlarning misralarda anglatgan ma’nolari borasida so‘z borar ekan, u quyidagicha mazmunga ega. Birinchi misrada *unim* so‘zi *umuman* olganda narsa ma’nosida, ikkinchi misrada *un mahsuloti*, uchinchi misrada *yuksalish, natija* ma’nosida, to‘rtinchi misrada esa *unim* so‘zining *ovoz* ma’nosи qo‘llanganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Nurmonov., A. Sobirov., N. Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2015.
2. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent. 2005.



## МАКТАБЛАРДА О‘ЗБЕК ТИЛИНИ О‘ҚИТИШДА INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kutimova Amangul Kalbayevna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi  
191-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi  
o’zbek tili fani o’qituvchisi

**Annotatsiya.** Bugungi kunda yurtimizda o’zbek tilini saqlab qolish, rivojlantirish, uning ta’lim-tarbiya jarayonida o’rganish samaradorligini oshirishga ko’p e’tibor, keng imkoniyatlar berilmoqda. Quyidagi maqolada o’zbek tilini o‘qitishda interfaol metodlar, o’zbek tili fanidan noan’anaviy darsni tashkil etish usullari haqida so‘z yurutiladi.

**Kalit so‘zlar:** interfaol metodlar, kommunikativ, krossvord, audio, esse, fikriy hujum, monitor

**Annotation.** Today in our country a lot of attention is paid to the preservation of the Uzbek language in a sense, a lot of attention is paid to improving the effectiveness of the educational process. The following article discusses the organization of non-traditional teaching methods in the native language of interactive methods in teaching the O’zbek language.

**Keywords:** interactive methods, communicative, krassword, audio, essay, “brainstorming”, monitor

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, ta’lim-tarbiya sohasiga katta e’tibor qaratildi. Bizning milliy tilimiz hisoblangan o’zbek tilini rivojlantirish haqida qonun va qarorlar qabul qilindi. (“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat ta’lim standartlari” ning chop etilishi, “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan o‘zgartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror). Bugungi kunda o’zbek tilining rivojiga davlatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prizdidinti SH. Mirziyoyevning 2019- yil, 21- oktabr ‘Davlat tili to‘g‘risidagi qonun’ ning (1989- yil, 21- oktabr) 30 yilligi munosabati bilan imzolagan qarori ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. ‘Dunyoda qadimgi va boy tillardan biri bo‘lgan o’zbek tili xalqimiz uchun milliy o’zlik va mustaqil davlatchilik timsoli. Mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir’ deyiladi qarorda. Albatta o’zbek tili bizning milliy ruhimiz, ma’naviy qiyofamiz hisoblanadi. Shunday ekan, fanlar tizimida ona tili fanini o‘z o‘rnini yaratish va mustahkamlash har bir pedagogdan talab qilinadigan ma’sulyatli ishdir. Ona tilimizni rivojlantirish, uni kelajak avlodga, ta’lim oluvchilarga, yanada tushunarli bo‘lishida, dars jarayonlarida ta’lim oluvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanib kelinmoqda. Barcha rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabiyurtimizda ham ta’lim samaradorligini oshirishda qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar nomibilan qo‘llanib kelinmoqda.

Xo‘sish, interfaol metodlar o‘zi nima va u qay darajada ona tili fani o‘qitish tizimini yuksaltira olyapti?

**Interfaol metodlar deganda** – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni darsga chuquroq jalb etish, ularda kommunikativ qobiliyatni shakillantirish uchun mavzuga oid mashqlar, audio lavhalar, muammoli savollar va ‘aqliy hujum’ orqali o‘quvchilarni mavzu yuzasidan erkin fikrlashga yo‘naltiradi. Interfaol metodlarning asosiy maqsadi: ta’lim oluvchini mustaqil hayotga tayyorlash, erkin fikrlashga o‘rgatishdir. Brinchi Prizdidint I. Karimov aytganlaridek: ‘Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasini past bo‘lishi muqarrar’. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’limning maqsadi, ta’lim oluvchilar soni, ta’lim muassasining moddiy tomoni, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining mahorati va boshqalar inobatga olinadi.O’zbek tili o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi: til imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli va unumli foydalanish ko‘nikma va malakasini hosil qilish, mantiqiy, ijodiy tafakkuri rivojlantirishdan iborat. O’zbek tilini o‘qitishda ta’lim mazmunini shakillantirishda ta’lim oluvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar asosiy o‘rin egallaydi. Dars jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Bugungi zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida ‘aktyor’ emas, ‘rejissiyor’ bo‘lishi lozim. Darsni tashkillashtirishda o‘quvchilar onggiga mavzu ko‘proq muhrilanib qolishi uchun o‘qituvchi yangi noananaviy usullardan foydalanishi mumkun. Bularga: har xil mavzuga oid slaydlar, krassword, audio qo‘llanmalarni keltirish mumkun. Hozirgi kunda eng ko‘p dars jarayoni nazariya bilan emas, amaliy mashg‘ulot bilan o‘tilishi barchamizga ma’lum. Bu ham aslida o‘qitishning bir metodi hisoblanadi. Amaliy



mashg‘ulot mavzusining esda qolarliliqi o‘qituvchi darsni qay yo‘sinda tashkillashtirishiga bog‘liq. Umuman olganda amaliy mashg‘ulotni talabaning o‘ziga qo‘yib berish lozim. Yuqorida aytilganidek ‘rejissiyor’ dars jarayonini va talabalar faolligini faqat kuzatib, baholab turishi kerak. O‘quvchilarga amaliy darsning birinchi qismida mavzugaoid krassvord beriladi yoki o‘rtaga bitta muammoli savol qo‘yiladi. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib bahs-munozaralar orqali fikrni bayon etib savolga javob topishlari mumkun.

Boshqa fanlar tizimida bo‘lgani kabi ona tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlarni ham guruhlarga ajratish mumkun:

- Nazariy bilim berish ko‘nikmalar
- Amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish metodi
- Matn yaratishga yo‘naltiruvchi metodlar

Bu borada o‘qituvchi dars vaqtida o‘ziga xos pedagogik qo‘llanmalarni qo‘llashi mumkun. Bular: ta’kidlovchi savollar, ‘aqliy hujum’ yoki ‘fikriy hujum’ (A.F. Osborn) ni keltirish mumkun ‘Fikriy hujum’ metodi ta’lim oluvchilar tomonidan har biri 5,6 kishidan tashkil topgan guruhlarga o‘n besh daqqaq ichida ijobiy hal etishlari uchun mavzuga oid masala beriladi. Bu esa ta’lim oluvchilarning izlanuvchanlik, erkin fikr almashinuvi qobilyatini shakillantiradi.

Dars jarayonida o‘qituvchi ta’lim oluvchilar uchun mayoq bo‘lib xizmat qiladi. Fan yo‘llarining har bir sarhadini ko‘zdan kechirib o‘rganish uchun o‘qituvchi, avvalo, faol va kuchli ‘mayoq’, eng asosiysi ta’lim oluvchini darsdan zeriktirib, bezdirib qo‘ymasligi lozim. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar asrining yoshlari ham, albatta, eskilikdan qochib, yangilikka intiluvchan. Shunday ekan, dars jarayonida o‘qituvchi ham zamon talabidan kelib chiqib ananaviylikni unutmagan holda dars o‘tishi, zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llay olishi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyada o‘qituvchi reproduktiv bilim berish jarayonida dars aniq bo‘laklarga bo‘linib, har bir bo‘lagida talabalar bilishi shart bo‘lgan natijalar ko‘rsatilishi mumkun, ya’ni dars jarayoni o‘quv materiallaridan kelib chiqib bo‘limlarga bo‘linadi va har qaysi bo‘limga test savoli tuzuladi. Bu esa dars jarayonida birorta o‘quvchini darsdan chetda qolib ketmasligini ta’minlaydi. Yana o‘quv muassasasining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda darslarda monitor bilan ishslash, eshitib topish, audio tinglash kabi texnologik metodlarni qo‘llash mumkun. Ta’lim muassasalaridagi ona tili mashg‘ulotlaridagi asosiy e’tibor o‘quvchilardagi ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon etishga, so‘z boyligini oshirish, matn yaratish ko‘nikmalarining shakllantirilishi lozim. O‘qituvchi ta’lim oluvchilarni bilim ko‘nikmalarini oshirish bilan birga fanning bugungi kundagi dolzarb masalalariga e’tiborini qaratishi kerak. Bugungi kunda asosiy muammolardan biri bo‘layotgan imloviy jihatdan so‘zlarini to‘g‘ri yozilishi, chetdan o‘zlashgan so‘zlarining muqobilini topish masalasini talabalar o‘qituvchi hamkorligida yechimni izlash, birgalikda hal qilishi mumkun. Ta’lim oluvchilar bo‘lajak mutaxassis umuman olganda kelajakda o‘z tilida bexato yoza oladigan shaxs sifatida ona tilini qaysi bo‘limlarini mukammal chuqurroq bilishi kerak? Buning uchun talaba olayotgan bilimni 100% deb belgilasak 60% - orfoografiya, 20% - orfoeziya, 20% - leksikalogiya va boshqa bo‘limlar tashkil qiladi

Dars jarayonining noananaviy shakllantirilishi mavzuning o‘quvchilarga tez tushunish va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. O‘qitish davomiyligi uchta muhim tarkibiy qism asosida amalga oshirilishi mumkun

1. Amaliy dars jarayonlarida talabalar ishtiroki o‘qituvchiga qaraganda ko‘proq bo‘lishi (amaliy darsni o‘qituvchi emas, talaba tashkillashtirishi mumkun)
2. Egallanga nazariy bilimlardan amaliy ko‘nikma hosil qilish (ko‘proq mashq bajarish va eshitib o‘rganish orqali)
3. O‘quvchilar o‘rganayotgan har bir mavzusidan ijodiy tafakkurni oshirish ( mavzu yuzasida o‘z fikrini bildirib esse, kichik maqolacha bilan yoritishi mumkun).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. B. To‘xliyev. M. SHamsiyeva. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti – T: 2006
2. Barkamol avlod orzusi – T: 2000
3. Interfaol metodlar va ularning tavsifi. Arxiv .uz internet ma’lumoti
4. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch – T: 2008
5. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish haqida. Baxtiyor.uz internet ma’lumoti



## ТИЛШУНОСЛИКДА ПОЭТИК СИМПТОМ МАСАЛАСИ

Носирова Умидахон Икромовна  
Фарғона ВХТҲҚТМОҲМ  
Тилларни ўқитиш методикаси  
кафедраси мудири  
tel:94-138-24-41  
e-mail:nosirovaumida@gmail.com

**Аннотация:** Ушбу мақолада тилшуносликда симптом масаласи ва унинг поэтик матннаги ифодаси ёритилган.

**Калит сўзлар:** Семиотик система, поэтик матн, симптом, лексик бирлик, когнитив-прагматика.

Дунё тилшунослигига оламнинг концептуал ва лисоний манзарасининг поэтик матннаги бадиий ифодаси когнитив-прагматик жиҳатдан кенг қамровда ўрганилмоқда. Жамиятда юз берәётган ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг контекстда акс этиши ва улар орқали юзага чиқадиган коммуникатив муносабатлар, ахборот узатиш ва уни қабул қилиш, қайта ишлаш, ундан маълум мақсадларда фойдаланиш каби инсон омили билан боғлиқ масалаларнинг илмий-назарий асослари яратилмоқда.

Семиотик системага кирувчи тил белгилари алоқа-аралашув жараённада аниқ вазифалар бажаради. Лисоний воситаларнинг нутқдаги функцияларини психолог ва тилшунос К.Бюлер уч гурухга ажратиб, тилнинг экспрессив, аппелятив ва репрезентатив каби уч функциясини “нутқий ифоданинг турлича тайинланиши”, деб изоҳлайди. Нутқий ифоданинг турли кўринишлари, умуман, матннинг яратилишида, рус тилшуноси И.Р.Гальперин эътироф этганидек, муаллифнинг фон билимлари, оламни қандай нигоҳ билан кўра олиши, борлик ҳақидаги тасаввурлари, унга бўлган муносабати муҳим роль ўйнайди. Поэтик матнларда ёзувчи ва шоирнинг тафаккур маҳсули бўлган борлик воқеаларининг бадиий ифодаси мавжуд мағкурага халқ муносабатининг симптоми сифатида намоён бўлади.

Симптом медицинага оид термин бўлиб, тиббиёт соҳаси орқали илмий ҳаётга тилшунос олимлар Карл Бюлер, И.Р.Гальперин, В.И.Заика ҳамда Н.Маҳмудов каби олимларнинг илмий асарлари орқали кириб келди. Симптом ва шу каби терминларнинг тилшунослик терминологик лугатига кириб келиши илм-фан тараққиётининг интеграцион ривожини таъминлади.

Тил ифодалаш функциясини бажарап экан, сўзловчининг нутқи унинг воқеликка нисбатан муносабат симптомини белгилайди. Поэтик матнларда турли ифода воситалари: лисоний ва нолисоний структураларда намоён бўлади. Ҳар қандай матнда хабарлар, фактлар, ҳаракатлар узлуксиз, бир-бирини тўлдириб, ўзаро лексик, семантик ва грамматик алоқага киришгандагина яхлит мазмуний бутунликни ташкил қиласи. Мазмуний бутунлик остида адресантнинг прагматик мақсади асосида адресатга йўналтирган ахбороти ётади. Фанда буни “тилнинг ифода функцияси”, деб юритилади. Масалан, А.Қаҳхорнинг “Бемор” ҳикоясида ижтимоий-иктисодий симптом ифодаланган бўлиб, асар қаҳрамони Сотиболди иктиносиди билими етишмаганлиги учун ижтимоий ҳаётда ўз бошига қатор муаммоларни сотиб олди:

*Сотиболдининг хотини оғриб қолди. Сотиболди касални ўқитди – бўлмади, табиба кўрсатди. Табиб қон олди. Бетобнинг кўзи тиниб, боши айланадиган бўлиб қолди. Бахши ўқиди. Аллақандай бир хотин келиб толнинг хипчини билан савалади, товуқ сўйиб қонлади... Буларнинг ҳаммаси, албатта, пул билан бўлади. Бундай вақтларда йўғон чўзилади, ингичка узулади... Докторхона деганда Сотиболдининг кўз олдига извои ва оқ подионинг сурати солинган 25 сўмлик пул келар эди.(А.Қаҳхор. “Бемор”).*

Ушбу матнда муаллиф “касални ўқитди”, “табибга кўрсатди”, “табиб қон олди”, “бахши ўқиди”, “толнинг хипчини билан савалади”, “товуқ сўйиб қонлади”, “извои ва оқ подионинг сурати солинган 25 сўмлик пул”. каби лексик бирликлардан фойдаланганки, бу бирликлар мазмуни замирида жамиятдаги маънавий саводсизликка нисбатан муаллифнинг эътиrozли симптоми яширинган. Асар сарлавҳасига “Бемор”, қаҳрамонига “Сотиболди” деб исм қуилишининг ўзи ҳам муаллиф ва китобхон ўртасида прагматик муносабатни



юзага келтиради. Муаллиф китобхонни огоҳ бўлишга чақиради, китобхон эса Сотиболди каби пулни бехудага сарифламай, ақл билан иш тутиш кераклиги ҳақидаги хulosага келади. Бу ҳикояда “*Пул топгунча, ҳисоб тон*” (халқ оғзаки ижодидан), деган имплицит ифода юзага чиқади. Бундай ифодалар тилшуносликнинг когнитив-прагматика соҳасида ўрганилади. Тилшунос олим Р.Цурнинг эътироф этганидек, поэтик матнларда “инсоннинг поэтик стркутура яратадиган таъсирни англаш қобилияти, яъни поэтик компетенция когнитив поэтиканинг объекти бўлиб хизмат қиласи”. Демак, поэтик матнларда прагматик муносабат ижодкорнинг поэтик дейксисида кўзга ташланади, шунингдек, муаллифнинг муносабати эътироф симптоми билан намоён бўлади. Поэтик симптом семиологик тушунча сифатида прагматикнинг тадқиқот объекти ҳисобланади.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. –М.: Прогресс, 1993. –502 с.
2. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: КомКнига, 2006. –144с.
3. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2017.
4. Заика В.И. // Respectus Philologicus. –Vilnius, 2006. – Nr 9 (14). –P. 38–51. [https://repozytorium.uwb.edu.pl/baj-13-Zaika\(3\).pdf](https://repozytorium.uwb.edu.pl/baj-13-Zaika(3).pdf) murojaat sanasi: 06.12.2019
5. Hakimov M., Nosirova U. Pragmatic indicators of poetic text. Scopus/ International Journal of Pharmaceutical Research|Apr–Jun 2020| Vol 12 | Issue 2/ISSN 0975-2366. –S. 1692-1697. [www.ijpronline.com](http://www.ijpronline.com).
6. Абдулла Қаххор. Мұхаббат. Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. –Б. 4.
7. Цур. Р.[https://studref.com/409282/literatura/kognitivnaya\\_poetika](https://studref.com/409282/literatura/kognitivnaya_poetika).



## MAQSUD SHAYXZODANING QARDOSH XALQLAR ADABIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

Ochilov Bahodir Ramozon o‘g‘li  
Yaxshiyev Shahzod Sherali o‘g‘li  
(Toshkent davlat transport universiteti)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi, u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda uning qardosh xalqlar adabiyoti yo‘nalishida qilgan ishlari haqida ma’lumot beriladi. Shoir ijodida qardosh xalqlar adabiyotining nozik qirralari hamda ularning ahamiyati tushuntiriladi. Shoir dunyoqarashi kengayishida muhim ta’sir ko‘rsatgan omillar izohlanadi. XX asr o‘zbek adabiyoti namoyandasi hisoblanmish Maqsud Shayxzoda ijodining nafaqat o‘zbek tilida, balki barcha qardosh xalqlar tillarida yaratgan asarlari hamda ularning nozik qirralari, xususan, she’riyat, dostonchilik, dramaturgiya, tarjimonlik, adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida qilgan ijod mahsulini o‘rganish, tadqiq qilish to‘g‘risida tushuncha beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Qardosh xalqlar, Taras Shevchenko, Nizomiy Ganjaviy, she’riyat, Shota Rustaveli, tahlil, so‘z san’atkori, dramaturgiya, tarjimonlik, adabiyotshunoslik, hayot va ijod muhiti, o‘zbek adabiyoti, Alisher Navoiy,

Maqsud Shayxzoda qardosh xalqlar adabiyoti ukrain, belorus arman, gruzin, ozarbayjon, tojik, qozoq va qirg‘izlarning ulkan ijodlari to‘g‘risida ham ilmiy maqolalar yozgan. Bu maqolalar Maqsud Shayxzoda adabiy-tanqiqdiy asarlarining 5-tomida «Qardosh xalqlar adabiyoti klassiklari haqida» nomli alohida bo‘lim sifatida kiritilgan.

Bu bo‘limda 1936-yil «Guliston» junralida chop etilgan «Isyonchi shoir - Taras Shevchenko», 1956-yil «Lenin uchquni» gazetasida chop etilgan «Atoqli xalq shoiri - Samad Vurg‘un» kabi maqolalari va 1947-yil Nizomiy asarlaridan qilingan «Guldasta» tarjimasiga yozilgan Ilyos Yusuf Nizomiy to‘g‘risidagi so‘zboshi o‘z aksini topgan.

«Isyonchi shoir» maqolasida Maqsud Shayxzoda ukrain xalqi orasidan chiqqan va shu xalqning eng sevimli kuychisi - baxshisi Taras Shevchenko haqida, uning hayoti va ijodi, ukrain dehqonlari, ularning yashash tarzi, shoirning dvoryan adabiyotiga munosabati xususida bahs yuritadi.

Maqsud Shayxzoda «Atoqli xalq shoiri» maqolasida ozarbayjon xalqining sevimli shoiri Samad Vurgunning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritib, shoirning shoirlilik iqtidori, she’riy to‘plamlari, dramaturg sifatida olib borgan ishlari to‘g‘risida keng ma‘lumot beradi.

Maqsud Shayxzoda ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy hayoti va faoliyati xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari qardosh xalqlar adabiyotiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘ldi.

Ma‘lumki, Nizomiy ozarbayjon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan.

Maqsud Shayxzoda Nizomiyning hayoti va foliyati haqida to‘xtalar ekan, uning boy ijodiy merosi xususida alohida o‘rin ajaratadi: U shunday yozadi: “Nizomiyning merosi oliymaqom va ulug‘vordir. Nizomiyni dunyoga tanitgan narsa uning “Xamsa”sidir. Besh mustaqil dostondan iborat bo‘lgan bu monumental asar Sharqda xamsachilik janriga poydevor qo‘ydi.”

Olim ushbu maqolasida xamsachilik Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida uzoq va murakkab tarixga ega bo‘lgan bir adabiy an‘ana ekanligini, Nizomiyning “Xamsa”si faqat ozarbayjon adabiyotidagina emas, balki Yaqin va O‘rta Sharq o‘lkalari adabiyotida ham yangi bob ochganligini qayd etadi.

Haqiqatan ham, Nizomiyning “Xamsa”si jahon adabiyoti, xususan, Sharq adabiyotining o‘lmas yodgorligidir. Maqsud Shayxzoda ta‘biri bilan aytganda, Nizomiy birinchi marta o‘larоq badiiy mazmun poeziyaga yaqin yangi va betakror syujetlarni kirgizdi. Nizomiy ulug‘ mahorat bilan kishi ruhining ichki dunyosini buyuk ruhshunos sifatida tahlil qildi. U o‘rta asrlarning muzlim kechasida aql, insof, bilim, sevgi, halollik, to‘g‘rilik, vafo va mehnatning nuroniy mash`alini yozdi. Shuning uchun ham Nizomiyning “Xamsa”si Sharq mamlakatlarda avloddan-avlodga yetib bordi, boshqa ijodkorlarga ham o‘zining ijobjiy ta’sirini o‘tkazdi. Bu xususda Maqsud Shayxzoda shunday deydi: “Nizomiy dostonlari shu qadar ideal klassik namuna bo‘lib qoldilarki, juda ko‘p shoirlar unga ergashuvni o‘zlariga farz deb bildilar. Sharqda yangi “Xamsa” yozay deb beshtadan doston yozgan shoirlarning soni yuzga borib yetdi”.

Shuni aytib o‘tish kerakki, har qanday besh doston ham “Xamsa” bo‘la olmaydi. Bu dostonlar nomi, janri, vazni, syujeti, obrazlari va kompozitsiyasi bilan Nizomiyning dostonlariga monand



bo’lishi va ayni zamonda Nizomiy “Xamsa”sining takrori yoki taqlidiy nusxasi emas, balki yangi, betakror xamsa bo’lishi, boshqacha aytganda, so’z san’ati taraqqiyotida yangi bir qadam, yangi pog’ona bo’lishi kerak edi. Bu juda murakkab va talabchan an’ana edi. Binobarin, o’nlab shoirlar Xamsa yaratgan bo’lsalar ham, ularning ko’pchiligi bu sohada muvaffaqiyat qozonolmadı, Nizomiy bilan ijodiy olishuvga bardosh berolmadı. Faqat uch shoirgina ulug’ xamsanavis bo’lib, Nizomiy qatoridan o’rin olishga muyassar bo’ldi. Bular ulug’ hind shoiri Xusrav Dehlaviy, ulug’ fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy, ulug’ o’zbek shoiri Alisher Navoiydir.

Maqsud Shayxzoda o’z taddiqotida ulug’ o’zbek mutaffakkiri Alisher Navoiyning Nizomiy Ganjaviy ganjinasidan beba ho durlarni qo’lga kiritgani xususida ham to’xtalib o’tadi va “... shubhasiz, Nizomiyning buyuk merosidan ilhom olgan va undan ijodiy-tanqidiy ravishda bahramand bo’lgan buyuk shoirimiz Alisher Navoiydir. Uning barcha dostonlarida va asarlarining ko’pchiligidagi Nizomiy sha’niga mutashakkurona madhiyalar va ehtiromli misralarni o’qiyimiz. Chunonchi, “Hayrat ul-abrор”ning kirish qismida shu oliy bahsni ko’ramiz.

Ganja Vatan, ko’ngli oning ganj xez,  
Xotiri ganjuri tili ganjrez.  
Kaffal mezon anga aflak ulub,  
Botmoni toshi kurai xok o’lib,  
Tortsa yuz qarn xirad xozini  
Chekmagay oning ko’pidan ozini.  
Nozim o’lub so’z duri serobig’a  
Charx “Nizomiy” yozib alqobig’a.

Xullas, Maqsud Shayxzoda o’zining “Taras Shevchenko” (1936), “Shota Rustaveli” haqida (1938), “Zamonamizning ulug’ shoiri jambul jabay o’g’li” (1946), “Shayx Ilyos Nizomiy Ganjaviy” (1940) kabi maqolalari bilan o’zbek kitobxonlarini qardosh adabiyot vakillarining hayoti va ijodi bilan tanishtirdi. Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda qardosh xalqlar adabiyoti namunalarini o’zbek tiliga muvaffaqiyat bilan tarjima qilgan. Shota Rustavelining “Yo’lbars terisi yopingan pahlavon” (Shoir Mirtemir bilan hamkorlikda) dostoni, Nizomiy Ganjaviy va Fuzuliyning lirik she’r va manzumalarini, Mirzo Fatali Oxundovning falsafiy qissalari, Taras Shevchenkoning “Kavkaz” dostoni va “Gaydamaklar”i (parcha), Jambul Jabayev, ozarbayjon shoirlari Samad Vurgun, Sulaymon Rustam, arman shoiri Avetik Isaakyanning o’zbekchaga tarjima etilgan asarlari shular jumlasidandir.

Maqsud Shayxzoda ingliz, nemis, farnsuz, italyan, turk, eron va Tojikiston adabiyotining atoqli vakillari haqida ham diqqatga sazovor maqolalar yaratdi. Uning “Shekspir geniysi adabiy so’nmaydi” (1940), “Bernard Shou do’stimiz” (1933), “Beranje - erklik kuychisi” (1934), “Muhammad Iqbol - ulug’ mutafakkir shoir va ozodlik jarchisi” (1958) kabi adabiy-tanqidiy maqolalari bilan yuksak saviyada bilimdonlik bilan yozilgan maqolalardir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Naim Karimov “Maqsud Shayxzoda” tarixiy – bibliografik roman

### Mualliflar haqida ma’lumot:

2. Yaxshiyev Shahzod Sherli o’g’li – Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi.

3. Ochilov Bahodir Ramozon o’g’li - Toshkent davlat transport universiteti Avtomobil yo’llari muhandisligi fakulteti talabasi.



## NEW WAYS TECHING ENGLISH LANGUAGE

Sobirova Dilafruz Chorievna  
Surkhandarya Region Termiz city  
School number 11

**Annotation:** this article includes innovative and modern methodology to teach English language especially, to teach IELTS techniques for foreign languages.

**Key words:** method, reading, writing, speaking, modern teaching, innovative teaching.

The teaching method which focuses more on teaching the students for improving their intellect behavior by using various new and innovative ideas rather than making them recite the syllabus to clear the examination with the same old style is **Modern Teaching Methods** in simple words.”

The new teaching method which we called the modern teaching method is more activity-based and centres the learner’s mind which involves them entirely into the process of learning. In the modern teaching method, curriculum teaching and planning are done keeping the learner as the primary target.

Through this way, learners actively participate in the whole process to build their knowledge and sharpen their skills; this is also termed as a constructivist approach. On the other hand, the mentor or teacher only leads them and guides them to focus on the objectives of the subject. This is all done by engaging in activities and by adopting innovative modern teaching methods. New demand of the era or the need of the hour for students is to embrace the contemporary teaching methods which will also help in reducing the competition among the students, promote cooperation, and boost the health study environment.

In recent years, the scope of knowledge in the field of science and technology has dramatically increased, and human’s ability to adapt to new knowledge in science and technology has also increased. So, there is an immense need for innovative and creative minds to explore unknown and unrevealed areas of different fields. To cope up with the modern world and the knowledge-driven era of technology, adopting modern ways are the only means to survive.

So, the students should be taught in a manner to tackle the 21st century, which is technology-driven time and which requires creative and innovative minds for the progress of individuals, society, and nation. The students should be introduced with modern teaching methods and are provided sufficient knowledge so that they can create opportunities for themselves and others.

### Advantages of Modern Teaching Methods

Modern teaching methods have many advantages. However, these advantages are the disadvantages of traditional teaching methods.

- Unlike traditional teaching methods, modern teaching methods are more interactive and keep students intact. It maintains the interest of students by animations and videos.
- The visual medium is way better than any other medium to give instructions. It helps to memorize the concept fast and for a more extended period than reading.
- Modern teaching methods are less time-consuming. Teachers take less time to cover the syllabus. Writing on the blackboard is not required.
- Blackboard explanation of content is less explanatory than a representation of videos and animations used in the modern teaching methods.

**Vocabulary building.** This is an important component of any English class. This strategy focuses a portion of each classroom session on building a better vocabulary. Teachers can ask students to point out unfamiliar words and go over the meanings in class or use interactive vocabulary-building exercises that relate to the class’s reading material.

**Writer’s workshop.** Have students participate in a writer’s workshop several times each year. The writing workshop model created by Lucy Calkins, founder of the Teachers College Reading and Writing Project, allows students to learn about and participate in all aspects of the writing process: drafting, revision, editing and publishing.

**Peer response and editing.** This can be a very valuable teaching strategy for both the teacher and the student, and there are many peer response strategies to try in class. Students get a chance to think critically about others’ writing and see the results their classmates got from a writing assignment. In addition, teachers can observe how different students learn and what strategies



might work better in the future.

**Cooperative learning.** This learning strategy is useful for English teachers who incorporate literature into their classroom. Cooperative learning requires students to discuss a piece of literature in small groups. By allowing the students to engage in meaningful discussion, they begin to learn to analyze literature and participate in an educational process that they will find more interesting than a general lecture on a chapter in a book.

**Student-chosen texts.** Allowing students to choose their own reading materials is a strategy that literacy specialists recommend as a way to develop lifelong readers. Students are given a choice of literature from an age- and reading level-appropriate book collection. After a period of independent reading, students break into groups and discuss what they've read, book club-style, followed by journaling. When this strategy is successful, students are able to delve deeply into the meaning of the literature, develop critiquing skills, and have a valuable discussion with their classmates about the book that they chose. Teachers who use this strategy finds that it can lead to a classroom that is engaged with literature.

### References

1. <https://eduvoice.in/modern-teaching-methods/#0-what-is-modern-teaching->
2. <https://resilienteducator.com/classroom-resources/teaching-strategies-for-english-teachers/>



## IDIOMS FROM THE WORLD OF TECHNOLOGY

Makhbuba Toshpulatova

TATU Farg‘ona filiali Xorijiy tillar  
kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotation:** This article describes some features of idiomatic expressions. They can be used in the world of technology and there are given several idioms related technology and computer in this article.

**Keywords:** idiom; natural language use, technology industry, software or hardware development, technology-based idioms.

An idiom is a phrase or saying that is commonly used in everyday English to express certain ideas or opinions. Understanding English idioms is important because they require a deeper familiarity of the English language to comprehend what someone means when they use them in conversation. Idioms add color and texture to language by creating images that convey meanings beyond those of the individual words that make them up. Idioms are culturally bound, providing insight into the history, culture, and outlook of their users. This is because most idioms have developed over time from practices, beliefs, and other aspects of different cultures. As a culture changes, the words used to describe it also change: some idioms fall out of use and others develop to replace them. Idioms are also used to express a sense of time, place, or size.

Idioms are also used in the sphere of technology. We use technology in every single part of our lives – from communicating with each other, entertainment and work. So it only seems natural that technology should have an important role in our language too! Idioms are far from uncommon throughout the technology industry. Whether you’re in software or hardware development or handle the business end of an IT company, you’re going to hear phrases such as *kill two birds with one stone, bells, and whistles, everything’s running ship-shape*, and *in Layman’s terms*, just to name a few.

These expressions are shorthand for the much more complex processes going on, keeping communications between developers quick and universal. Idioms also make it far easier to communicate what developers are handling to the business side of the company. Despite the prevalence of shorthands, idioms, and expressions in the tech industry, you hardly ever hear any technology-based idioms.

### Where are All the Computer Idioms?

Although idioms have been around for quite some time and they serve as the basis for memes in more recent years, there is still a serious lack of computer and technology-based idioms.

Technology is all around us and it is really changing the way we live our lives. Some say technology is making things better and others say that it is making things more complicated. Whatever you think you cannot deny that technology is here to stay!

So, we have compiled a several idioms that have been given to us by the technology world. There are some fantastic ones here and they can also be used to describe things in the human world.

- to pull the plug - to stop something in its tracks, to stop it immediately

*Example: The business was not doing very well in the last 3 months, and the owners decided to pull the plug.*

• **to blow a fuse** - when somebody blows a fuse, they get angry or agitated very quickly, and they really explode

*Example: The customer is going to blow a fuse if we don’t deliver it on time.*

We can also use it in the negative.

*Example: I’m sorry, Dad, I had a slight accident with the car, but please don’t blow a fuse.*

- to get your wires crossed - to misunderstand somebody

*Example: We got our wires crossed; I thought you were picking Jack up.*

• nuts and bolts (of something)- the finest practical details of something rather than theories or ideas about it

*Example: Ahmad has worked in this business for 20 years; he knows the nuts and bolts.*

- to be on the same wavelength – to have the same thoughts, the same intentions ; to



understand exactly the same thing

*Example: After the first few brief conversations, we already knew that we were on the same wavelength.*

- wheels within wheels – a lot of bureaucracy, hidden or unknown reasons that make a particular situation very complicated, difficult and slow

*Example: Wheels within wheels. You've got to fill in this form, you've got to fill in that form, you've got to talk to this person. It takes forever to get something done.*

- (all the) bells and whistles – additional fancy features and extras that make a product very attractive

*Example: This is the first time that we've launched a product in many years. We want it to be a real success; we want to capture the public's imagination, so let's really give it all the bells and whistles.*

- to be right on the button - to be exactly right

*Example: He confirmed her suspicions; he was right on the button.*

- to be at the cutting edge - to be right there in the lead, at the front

*Example: Apple is always at the cutting edge of technology. The company has become a leader in the industry.*

- Make Someone Or Something Tick - to get something or someone going; to get someone interested; to get something moving along

*Example: We need to introduce new people to the company that will help to make the business tick.*

- Pushing buttons - doing something specific to deliberately provoke a reaction – often a negative one.

E.g. “Whenever I see my sister she knows just what buttons to push to make me really angry.”

Contextualizing idioms is very difficult. Idioms are so deeply connected to cultural identity and communication norms that non-native speakers have difficulty in using them correctly. The best way to begin a study of idioms is to improve comprehension. We suggest that the teacher first focus on understanding definitions and situations so that students can make sense of what they hear or read.

## USED LITERATURE

1. John I. Liontas a, Refocusing the Digital Lens of Idiomaticity: A Second Look at Understanding Idiomaticity in CALL1
2. Hinkel, E. (2017). Teaching idiomatic expressions and phrases: Insights and techniques.
3. Smith, B. (2016). Technology in language learning: An overview. New York, NY: Routledge



“BOBURNOMA”DA KELTIRILGAN IJODKORLAR TAVSIFI

Yo‘ldoshaliyeva Muyassarxon Yo‘ldoshboy qizi  
Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** bu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan ijodkorlar va ularning taxallusi, yozgan ijod namunalaridan keltirilgan. Har bir shoir va yozuvchilarga alohida to‘xtab o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, shoir, taxallus, bayt, antraponimlar.

“Boburnoma” -millatimizning rahnamosi, Andijonimizning suyukli farzandi, Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansubdir. Ijodkor asarni o‘n ikki yoshida otasi- Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng, taxtga o‘tirgach yoza boshlagan. Asarni umrining oxirida yakunlagan. “Boburnoma”-esdalik asar hisoblanadi. Boburnoma — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlikdir. O‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy, memuar va tarixiy-ilmiy asar. Asar eski o‘zbekcha, ya’ni chig‘atoj tilida yozilgan taxminan 1518/19—1530-yillarga to‘g‘ri keladi. “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoye” va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Bobuburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy, siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘likdir. Asar keng qamrovli bo‘lib, turli sohalar haqida ma’lumot beradi. Kitobxonga din va shariat, etnografiya, insonshunoslik, astranomiya, tabobat, harb ilmi, xalq og‘zaki ijodi, matematika, bog‘shunoslik, shahar qurilishi, tush ta‘birigacha o‘nlab ilmlardan muhim va qiziqarli ma’lumotlar beradi. Bu asar mazmuni, voqealariga e’tibor bergen kitobxon: “Boburning qiziqmagan va bilmagan sohasi yo‘q ekan”, degan xulosaga kelishi mumkin. Darhaqiqat, bu ajoyib fazilatlar uning ko‘p qirrali faoliyatiga xos va mosdir. Shu sababli ham asar qomusiy deb aytildi.

Antrapologiya- nomshunoslikning kishi ismlarini o‘rganuvchi bo‘limi. Ular tarkibiga otasining ismi, familiyasi, laqabi va taxallusi kiradi. Asarda juda ko‘plab tarixiy shaxslar berilgan. Biz bulardan ayrimlari bilan tanishib o‘tamiz.

Boburning amakilari Sulton Mahmud va Sulton Ahmadlar bo‘lgan. Kichik amakisi Sulton Mahmudning “Olachaxon” degan ikkinchi ismi ham bo‘lgan. Bizda nega bunday deyilgan savoli tug‘ilishi tabiiy. Bunga sabab qalmoq va mo‘g‘ul tillarida “qotil”ni “olacha” deb atashidir. Umrining ko‘p qismi janglarda o‘tgan Sulton Ahmad bir necha marta qalmoqlar yurtini bosib olgan, ko‘p odamlarni qirib tashlagan. Olachaxon nomi ham qalmoqlar tomonidan berilgan.

*Mastam, ey muhtasib, imroz zi man dast bidor*

*Extisobam bikun, on ro ‘z ki yobi xushyor.*

Bu fors-tojik tilida yozilgan g‘azal Sulton Malik Koshg‘ariyning o‘g‘li Ahmad Xojabek qalamiga mansub. Amakisi vafotidan so‘ng Samarqand hukumatini boshqargan. Xojabek xushta‘b va mardonha kishi bo‘lgan. “Vafoiy” taxallusi bilan she’rlar yozib devon tartib bergen. Navoiy Hirotdan Samarqandga kelgan paytlari ular bilan hamsuhbat bo‘lar edi.

Sulton Abusaid huzurida xurosonlik tunqo‘riqchilar ham bo‘lgan. Ana shunday shaxslardan biri Ayub bo‘lgan. Sulton Mahmudga xizmat qilgan. Hazilkash va so‘zamolligi uchun, Sulton Mahmud Mirzo unga “Behayo” laqabi bilan xitob qilgan.

Asarda Boysung‘ur Mirzoga ham alohida tavsif berib o‘tilgan. Adolatli, xushchaqchaq, kamtar va fazilatli inson bo‘lgan. Ichkilik ichmagan paytda namozlarini to‘la-to‘kis ado etar edi. Nasta’liq xatida chiroyli baytlar bitgan.

*Soyalar az notavoni jo-bajo meo ‘ftam*

*Gar nagiram ro ‘i devorr zi po meo ‘ftam.*

Bu baytlari el orasida mashhur bo‘lgan. Boysu urush Mirzo el orasida “Odiliy” taxallusi bilan ijod etgan, biroq devon tuza olmagan. Yana bir buyuk ijodkor Temuriylar vakili Husayniydir. Husayn Bayqaroning ayrim hislatlari Umarshayx Mirzoga o‘xshab ketadi. Ikkisi ham kabutarbozlikka qiziqishgan, o‘z parrandaxonalarida turli xildagi kabutarlarni boqishgan. Mohir va baquvvat askar bo‘lishgan. Husayn Boyqaro “Husayniy” taxallusi bilan ijod qilgan. She’rlarini barchasini bir vaznda yozgan. Devon tartib qilgan. Uning o‘g‘li shoh G‘arib Mirzo jismonan zaif bo‘lsada, she’riyatda kuchli va iqtidorli ijodkor edi. “G‘aribiy” taxallusi bilan fors va turkiyda ajoyib



she’rlar yozgan.

*Darguzar didam paripo ‘y shudamdevonavash,  
Chist nomi o’, boshad nadanam xonaash.*

Yuqoridagi baytlar Garibiyning ijod mahsulidir.

Alisher Navoiy betakror ijodkor. Navoiy turkiy she’riyatimizdagi naziri yo‘q edi. U she’rlariga ikki taxallus qo‘llagan. Turkiy she’riyatiga “ Navoiy”- navo qiluvchi va forsiy she’rlariga –“ Foniy”, ya’ni o‘tkinchi demakdir. “Boburnoma”da muallif Navoiyga bir gap bilan : “ Turkiy she’riyatda hech kim unchalik ko‘p va ho‘p yozgan emas” deb ta’riflaydi.

O‘rta asrlar she’riyatiga qo‘rqinchli so‘z va ma’nolari bilan iz qoldirgan , she’rni g‘alati qilib aytuvchi Shayximbek ham “Suxayliy” taxallusi bilan she’rlar bitgan.

*G‘am kechasi ohimning quyuni osmonni o‘rnidan qo‘zg‘atdi  
Ko‘z-yoshim semining ajdahosi yer yuzini yutib yubordi.*

Har bir ijodkor o‘z kasbi, shajarasiga qarab taxallus tanlagen.Osafiy Vazir o‘g‘li bo‘lgani uchun “Osafiy”, ya’ni “ Vazir” taxallusini olgan . Garchi she’rlari ishq-muhabbat va ehtirosdan bahrasiz bo‘lsa-da, tasvir jilolari va ma’nodan holi emas.

Binoiyning otasi Ustoz Muhammad Sabz binokor bo‘lgani uchun Binoiy taxallusi bilan she’rlar mashq qilib turgan.G‘azallarida rang va kayfiyat sezilib turadi. Mevalar haqida doston yozgan, lekin unchalik yoqimli bo‘limgan.

O‘tmish adabiyot va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘limgan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Bobur. Tanlangan asarlari. T.: 1958.
2. Bobur, Boburnoma. T.: 1960, 1989.
3. [www.ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com.kutubxonasi)

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 7-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000